

**YOSHLARNING MUSIQIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA MUSIQA VA MAQOM
SAN'ATINING TUTGAN O'RNI.**

Xolmatova Dilbarxon

Xoldorov Akbarali

Farg'ona ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internati o'qituvchilari

Buyuk istiqlolimiz sharofati bilan maqom san'atimiz rivoj topmoqda. Ulug' ustozlar Jo'raxon Sultonov, Mahmurjon Uzoqov, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Komiljon Otaniyozov, Fattohxon Mamadaliev, Odiljon Yusupov, Tavakkal Qodirov, Otajon Xudoyshukurov nomlari bilan o'tkazilayotgan respublika va vohalar yosh xonandalari ko'rik tanlovlari, An'anaviy tarzda o'tkazilishi maqom san'atimizning kelajak avlod qo'liga topshirishda ko'prik bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ustozlar anhanasini davom ettirishib, qator san'atkorlar muvaffaqiyatli ijod qilmoqdalar. Ular ustozlar maktabiga suyangan holda o'zlariga xos ijro yo'llari va uslublari bilan maqom xazinasiga sezilarli hissa qo'shmoqdalar.

Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida e'zozlab, sayqal berishib, katta ijodiy izlanishlar bilan o'z yelkalarida opichlab o'tgan buyuk san'atimiz xazinasini, milliy qo'shiqchilik ijrochiligi an'anasini ushbu asrda yetishib chiqadigan san'atkor avlod vakillari kelgusi asrlarga olib o'tadilar degan umidda miz.

Xozirgi kunda maqomning ko'p asrlardan beri saqlanib kelayotgan va hozir mavjud bulgan musiqa merosi asarlarini bildiradi.

Maqomni xalq musiqasining boshka janrlaridan ajratadigan xarakterli belgilari, ularning xajmi kattaligi va ko'p qismliligidadir. Uzbekiston va Tojikistonda uzoq asrlardan bizgacha yetib kelgan olti maqom bo'lib, shoshmaqom nomi bilan mashxur bular, Buzruk, Rost. Navo, Dugox, Segox, Iroklardir. Xar bir maqom ikki katta qismga bo'linadi

Birinchisi-faqat cholgu asboblariida ijro etiladigan qismi bulib, buni mushkulot (Xorazmda chertim yo'li) deyiladi. Ikkinchisi-cholgu asboblari jo'rligida aytiladigan ashula qismi. Bunda Nasr (Xorazmda aytim yo'li) deb aytiladi. Bu qismlarning xar birida bir necha kuy bor. Xar bir maqom ashula bilan ijro qilinadigan raqs musiqasi-ufor bilan tugallanadi. SHoshmaqom kuylarini ijro qilganda, albatta doira usul berib turish shart. Doirasiz maqom ijro etilmaydi

SHoshmaqom kuylari birinchi marta 1923 yil prof. V.A. Uspenskiy tomonidan Buxoroning mashxur sozanda, xofizlari Ota Jalil va ota Giyoslar ijrosida notaga yozib olingan. Lekin Buxoro xalq maorifi noziriligining korsatmasi buyicha maqomlarni nasr qismi ashula yullarining suzlari yozilmay qoldirilgan. SHunga karamay «shoshmaqom»ning notalari ilk marotaba 1924 yili Moskvada chop qilingan.

Maqomchi.

Maqom yo'llarini ijro qiluvchi ashulachi va sozandalar maqomchi deyiladi. SHoshmaqom kuylarini ijro etish ancha qiyin va murakkab. Bu yullarni to'la

o'zlashtirib olish uzoq vaqt qunt bilan ishlash talab qilinadi. O'zbekistonda xalq orasida tanilgan atoqli maqomchilar- ota Jalol. Ota Giyos, Xoji Abdulaziz, Yunus Rajabiy. Faxriddin Sodikov. Domla Xalim Ibodov va boshqalardir.

Yoshlar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy yangilanishining muxim sube'ktlaridan bo'lib, turmushida ro'y berayotgan jarayonlarga o'z ta'irini o'tkazadi va taraqqiyotni harakatga keltirishda muxim rol o'ynaydi. Mamlakatimizning ertangi kuni qanday bo'lishi yoshlarning har tomonlama salohiyati va yetukligiga bog'liq. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek, yosh avlod madaniyatimiz va ma'naviyatimizni, taraqqiyotining intellektual qadriyatlarini kelajak jamiyat a'zolarining ongiga yetkazadi.

Yoshlar bunday masuliyatli vazifani bajarishlari va ularning erkin rivojlanishi ijodiy bunyodkorlik faoliyatiga qulay imkoniyatlar yaratib berish uchun O'zbekistonda katta amaliy ishlar qilinmoqda. Jumladan, Bizning Farg'ona ixtisoslashtirilgan maqom maktabi – internati o'quvchilari “ Yosh maqomchilar” ko'rik tanlovi Respublika bosqichida qatnashdilar va Isroilov Qosimbek Qonun cholg'usida I o'rin, Zokirjonov Javohir G'ijjak cholg'usida II o'rin, Raxmatullaev Ilhomjon boshchiligidagi "Tarona" maqom cholg'u ansambli I o'rinlarni egallashdi

Xalq ijodi uning donoligi, jamoa sanoati mahsulidir. Bularning hammasidan bolani ma'naviy-axloqiy va jismoniy jihatdan sog'lom qilib o'stirishda murg'akligidan chiniqtirishda samarali foydalanilgan. Ma'naviy meros – yoshlarda o'zlikni va o'tmishdan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiradi. Buning yaqqol ne-ne daholarni, qahramonlarni, chinakam millatsevar, vatanparvarlarni, bir so'z bilan aytganda, dunyo tamadduniga beqiyos hissa qo'shgan munavvar zotlarni kamolga yetkazgan xalqimizning yaqin o'tmishida ko'rishimiz mumkin. Buyuk, o'lmas qadriyatlarning yaratuvchisi, ijodkori bo'lgan, ayni bir paytda, uni avdoddan – avlodga gard yuqtirmay, mo'tabar qilib yetkazib kelayotgan xalqimiz, nihoyat uzoq davom etgan istibdod zanjiridan qutildi. Eng muhimi, asrlar mobaynida shakllangan, sayqallangan, milliy qadriyatlarga bugungi kunda egalik qilmoqdamiz. Usta-shogirdlik an'analari ustoz oldiga ham, shogird oldiga ham, katta mas'uliyat yuklaydi. Usta-shogirdlik an'anasi faqat hofizlar orasida emas, balki sozandalar, bastakorlar orasida ham, xatto oddiy xat-savod o'rgatish borasida ham keng qo'llanib kelingan. Odatda ota o'z farzandini ustozga shogirdlikka berar ekan, taomil bo'yicha: «Suyagi meniki, eti sizniki» degan iborani ishlatganlar. Bu so'z orqali ustoz har qancha qattiqqo'l bo'lmasin, shogird uning aytganlarini so'zsiz va bekamu-ko'st bajarishi lozim.